

COLLECTION

Innovation, integration and modern
problems in the scientific activities of young
researchers and students: theory and
practice

www.d-pressa.com

31
MARCH



Jizzakh, Uzbekistan

MINISTRY OF HIGHER EDUCATION, SCIENCE AND INNOVATION OF
THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

JIZZAKH BRANCH OF THE NATIONAL UNIVERSITY OF UZBEKISTAN
NAMED AFTER MIRZO ULUGBEK

SCIENTIFIC JOURNAL OF SCIENCE TECHNOLOGY & DIGITAL FINANCE
JOURNAL OF INTERNATIONAL SCIENCE NETWORKS

Innovation, integration and modern problems in the scientific activities of young
researchers and students: theory and practice collection of materials of the
international scientific and practical conference on the topic

(March 31, 2026)

Jizzakh-2026

Innovation, integration and modern problems in the scientific activities of young researchers and students: theory and practice – Jizzakh: Department of economics and tourism of Jizzakh branch of the national university of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek, March 31, 2026, 790 pp.

Editors in charge: Ass.prof. Soy M.P.

In the collection of materials of the conference, the role and role of Science, Education and production in the era of globalization, the pressing problems of the issues of interaction of these processes, feedback on their solutions were presented by mature specialists of the field.

In addition, research on the scientific and practical topic, carried out in the economics, Exact Sciences, Natural Sciences and socio-humanities during the globalization period, information is presented in the scientific and practical fields, which includes the latest innovative technologies in the fields of production.

It can be argued that this collection is one of the specific intersections of current thoughts and innovative ideas of the world of science. This scientific and practical conference was actively attended by professors and scientific researchers engaged in scientific research in Uzbekistan and foreign countries. In increasing the position of the scientific and practical conference, the professors and teachers of domestic and foreign higher educational institutions made a significant contribution.

Professors and teachers of foreign higher educational institutions who actively participated in the work of the conference made a worthy contribution to the high level of interaction with scientists of our country. The processes of international cooperation with foreign countries and exchange with them in the field of Science in the era of globalization have a positive effect on the development of Higher Education, the fields of Science and production. The materials of this conference are special in that they include a wide range of research, from theoretical developments to practical solutions, demonstrating the diversity of approaches and directions in this area.

In conclusion, it should be noted that this scientific and practical conference will be a very useful collection for everyone who is interested in modern research in the fields of further development of Higher Education, Science, Education and production in the era of globalization. The authors are responsible for the content and quality of the articles and abstracts included in the collection.

SHAXS AGRESSIV HOLATINI DIAGNOSTIKASIDA «MAVJUD BO‘LMAGAN HAYVON» METODKASINING AHAMIYATI

To‘rayeva Nigora Boboyor qizi

TerDPI Amaliy psixologiya kafedrasida o‘qituvchisi

nigatorayeva@264gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada shaxsning Egosi (Meni) qay darajadiligini, fikrlash xususiyatini, shaxsning agressivligini, xavotirlanish va himoya reaksiyalarini diagnostika qilishga mo‘ljallangan mavjud bo‘lmagan hayvon metodikasiga batafsil to‘xtalgan. Shuningdek, bu metodika yordamida shaxsning ijodiy imkoniyatlari kabi jihatlarini o‘rganish mumkin.

Kalit so‘zlar: egosentrizm, agressivlik, himoya reaksiyalari, xavotirlanish, qo‘rquv, kreativlik.

Kirish. Inson har doim ham o‘z ruhiy holatini va psixologik sifatlarini to‘g‘ri tavsiflab bera olmaydi, bunga intilmasligi ham mumkin. Chunki o‘z o‘zini tahlil qilish odamda mavjud ayrim komplekslar tufayli cheklab qo‘yilgan bo‘lishi mumkin. Alohida ta’kidlash lozimki, har doim ham atrofdagilarning fikriga tayanib bo‘lmaydi. Chunki u kishi sizga tobe yoki sizga ijobiy xislatlarini namoyon etadigan bo‘lsa, u faqat sizni yaxshi jihatlarinigizni ko‘rsatishga urinadi, aksincha bo‘lsa, u faqat sizni salbiy jihatdan tavsiflashga harakat qiladi. Ushbu holatlardan kelib chiqadigin bo‘lsak, turli sharoitlarda sizga testlar yordam bera oladi. Proyektiv metodikalar ana shunday hollarda biz qo‘l keladi. «Proyeksiya» tushunchasi dastlab Z. Freyd (1921) tomonidan sub’yektning ongli va ongsiz tarzda ko‘chirilgan shaxsiy xususiyatlari, tashqi ob’yektlarga nisbatan holatlarning mazmunini ifodalash uchun qo‘llanilgan. Proyeksiya lotincha «proektio» so‘zidan olingan bo‘lib, oldinga irg‘itish, tashlash ma’nosini bildiradi. Shaxsni o‘rganishning proyektiv metodi eksperiment natijalariga asosan proyeksiyalarni aniqlash va so‘ngra ularni tahlil qilishni ko‘zda tutadi. Proyeksiya tushunchasini tavsiflash «Men»ning himoya mexanizmlari bilan uzviy bog‘liq. Proyeksiya sublimatsiya (faollikni boshqa himoya mexanizmlaridan biri sifatida qaraladi. Biz proyektiv metodikalar orasida “Mavjud bo‘lmagan hayvon” metodikasiga to‘xtalib o‘tamiz.

«MAVJUD BO‘LMAGAN HAYVON» METODIKASI. Ushbu metodika o‘z mazmuniga ko‘ra proyektiv metodikalar qatoriga kiradi. Uning yordamida shaxsning muayyan xususiyatlari va psixik holatlari haqida ma’lumot to‘plash mumkin. Metodika yo‘naltiruvchi xarakterga ega bo‘lganligi sababli, u tadqiqot batareyasiga kiruvchi metodikalardan biri sifatida qo‘llaniladi. Metodika yordamida:

- o‘z-o‘ziga baho berish xususiyati tekshiriluvchining o‘z holatidan qoniqmasligi, atrofdagilar tomonidan etarlicha tan olinmaslik;
- o‘ziga ishonmaslik, qo‘rqinch, jur’atsizlik kabi sifatlar;
- insonning faoliyatga yo‘nalganligi;
- fikrlash xususiyati;

- egotsentrizm;
- shaxsning agressivligi;
- xavotirlanish va himoya reaksiyalari;
- shaxsning ijodiy imkoniyatlari kabi jihatlari o'rganish mumkin.

Metodika universal xarakterga ega. Uni turli yoshdagi, turli rivojlanish darajasiga ega bo'lgan sinaluvchilarda o'tkazish mumkin. Bu erda eng muhimi tadqiqotchi tomonidan rasm va uning detallarini to'g'ri tavisflashdir. Metodikani o'tkazish uchun oq yoki sarg'ish (silliq bo'lmagan) qog'oz va o'rtacha yumshoqlikdagi qora qalam kerak bo'ladi. Rangli qalamlar ruchka, flomaster, o'chirg'ichdan foydalanish mumkin emas.

Ko'rsatma: «Mavjud bo'lmagan hayvonni o'ylab topib, uning rasmini chizing va nom qo'ying».

Metodikani individual tarzda o'tkazish tavsiya qilinadi. Uni o'tkazish davomiyligi chegaralanmagan.

Rasm elementlari va ularning tavsiflanishi.

Normada rasm vertikal qo'yilgan varaqning o'rtasida joylashgan bo'ladi. Agar rasm varaqning yuqori chekkasiga yaqin holatda bo'lsa, bu o'ziga yuqori baho berish, jamiyatda egallangan mavqeidan norozilik, atrofdagilar tomonidan etarlicha tan olinmaslik; lavoizimga ko'tarilish va tan olinishga nisbatan e'tiroz; o'z-o'zini tasdiqlashga intilish belgisi hisoblanadi.

Agar rasm varaqning quyi qismida joylashgan bo'lsa, buni o'ziga nisbatan ishonchsizlik, o'ziga past baho berish, qat'iyatsizlik, tushkunlik sifatida; jamoada biror mavqeni egallashga intilmaslik; tan olinish hamda o'z-o'zini e'tirof etish mavjud emasligi sifatida baholash mumkin.

Figuraning markaziy qismi tahlili: (bosh yoki uning o'rnini bosuvchi qism). Agar bosh o'ngga qaragan bo'lsa, faoliyatga bo'lgan barqaror intilish, harakatchanlikni bildiradi. Bunda rejalashtirilgan, o'ylangan barcha fikrlar amalga oshiriladi yoki garchi oxirigacha etkazilmasada uni amalga oshirishga kirishiladi.

Bosh chap tarafga qaratib chizilgan bo'lsa, refleksiya, o'zini boshqalar qanday idrok qilishlari haqida o'ylash, fikrlashga moyillik. Bunday sinaluvchilar harakat kishilari emas, ular o'ylaganlarining bir qisminigina amalga oshiradilar. Ba'zida bu shaxsning faol harakat qilishdan cho'chishi, qat'iyatsizlik sifatida qaraladi (biroq buni boshqa yo'llar orqali tekshirish lozim).

«**Anfas**» holati, ya'ni rasm chizayotgan shaxs tomonga qarata chizilgan bo'lsa, bu holat egotsentrizm sifatida talqin etiladi.

Agar bosh qismda sezgi organlariga mos detallar aks ettirilsa, ya'ni **guloq, og'iz, ko'z**-bular axborot olishga qiziquvchanlik, atrofdagilarning o'zi haqidagi fikrlariga ahamiyat berishlik, deb qaraladi. qisman ochiq og'iz til bilan uyg'unlashgan holda biroq lablar aniq chizilmagan holda tasvirlansa, kuchli nutqiy faollik (haddan ziyod ko'p gapirish) sifatida, lablar aniq chizilsa, sezgirlik sifatida baholanadi.

Til va lablarsiz, ayniqcha qattiq botirib chizilgan ochiq og'iz qo'rqinch va tashvish, ishonchsizlikning oson yuzaga kelishidan; tishlar bilan tasvirlanish og'iz-

verbal agerssiya, ko'pchilik hollarda himoyaviy agressiya (shaxsga qaratilgan salbiy murojatga nisbatan qo'pollik qilish, g'ijinish, so'kinish kabilar) dan darak beradi.

Shuni ta'kidlash lozimki, bolalar va o'smirlar uchun og'izni dumaloq shaklda tasvirlash xosdir. Bu esa sinaluvchidagi qo'rqinch va xavotirlanish holatlarini bildiradi.

Rasmda tasvirlangan **ko'zlarga** alohida ahamiyat berish zarur. Agar ko'z qorachig'i alohida urg'u bilan chizilsa-bu insonga xos bo'lgan qo'rquv kechinmasining belgisi sanaladi. Bunda kipriklarning bor yoki yo'qligiga ham ahamiyat berish zarur.

Kipriklar-xulq-atvorning namoyishkorona-jazava usuli. Erkaklar rasmlarida kipriklar tasvirlansa, ularda ayollar xarakteriga xos sifatlar mavjudligidan darakdir. Shuningdek, kipriklar sinaluvchining atrofdagilarni o'z tashqi chiroyi, kiyinish uslubi bilan lol qoldirishga intilishi, bu jihatlarga katta e'tibor bilan qarashini bildiradi.

Agar rasmning bosh qismi butun figura o'lchamiga nisbatan katta bo'lsa, sinaluvchi o'zidagi va atrovdagi kishilardagi fikrlash, eruditsiyani qadrlashidan darak beradi. Ba'zi hollarda boshda qo'shimcha detallar, masalan, shox tasvirlanishi mumkin.

Shoxlar-himoya va agressiya timosli bo'lib, boshqa belgilar (tirnoq, dag'al jun, igna) bilan birgalikda tasvirlansa, bu tajovuzkor xarakter, spontan yoki himofviy agressiya ekanligini bildiradi. Hayvondagi patlar-o'zini bezab ko'rsatish, o'zini oqlash, namoyish qilishga moyillik bo'lsa, yol, jun va shunga o'xshash soch turmaklari-hissiyot, o'z jinsini ta'kidlash, o'zining seksual rolga e'tiborni qaratish belgisi hisoblanadi.

Figuraning tayanch qismlari tahlili: (oyoqlar, panja, ba'zida postament).

Bunda asosiy e'tibor bu qismning butun figura va shakl o'lchamlari nisbatiga, oyoq qismining tana bilan qanday birlashishiga, oyoqlar hamda panjaralarning qaysi tomonga yo'naltirilganligiga qaratilishi zarur. Agar oyoqlar tana bilan aniq, puxta birlashtirilsa, bu qaror qabul qilishning asosligi, o'ylanganligi, ratsionallik belgisi; agar birlashtirish pala-partish zaif bo'lsa, yoki umuman birlashmagan bo'lsa yoki oyoq, asos umuman bo'lmasa-bu yuzaki fikrlash, xulosa chiqarishga yengil-yelpi aralash, ba'zida qaror qabul qilishning impulsivligidan darak beradi.

Oyoq, panjara shakllarining bir xilligi va bir tomonga yo'nalganligi

Qaror qabo'l qilishning konformligi (mustaqil emasligi), oddiyligi, standartligi hisoblanadi. Bu detallarning shakli va holatlari har xillik, aksincha, fikr va ustanovkalarining o'ziga xosligi, mustaqilligi, ba'zida ijodiylik belgisi.

Figuraning yuqorisida joylashgan qismlar tahlili

Qanotlar, qisqichlar, pat, jingalak soch, bantik kabilar-o'ziga ishonch, qiziquvchanliklik, atrofdagilarning ishlarida iloji boricha ko'proq ishtirok etish, o'z faoliyatiga berilib ketish belgisi. Bezovchi detallar-namoyishkorlik, atrofdagilar e'tiborini o'ziga qaratishga moyillikdan darak beradi.

Dumlar-sinaluvchining o'z hatti-harakati, qaror va xulosalariga munosabatini bildiradi.

Agar dum qog'ozda o'ngga qarata chizilsa, bu sinaluvchining o'z harakati va hulq-atvoriga munosabat, chapga qaragan bo'lsa, bu o'z fikr, qarorlari, boy berilgan imkoniyatlariga, qat'iyatsizligiga munosabati aks ettiradi. Bu munosabatning ijobiy yoki salbiy xarakteri dumning yuqoriga (ishonch va tetiklik) yoki pastga (o'zidan qoniqmaslik, o'zining haqligidan shubhalanish, aytgan gaplari, qilgan ishlaridan afsuslanish) qaratilishida ifodalanadi. Bunda bir necha, ba'zan takrorlanuvchi bo'g'inlardan tashkil topuvchi, ayniqsa haddan ziyod qalin, uzun va tarvaqaylab ketgan dumga e'tibor berish lozim.

Figura konturlari. Bo'rtib chiqishlar (arqon, igna tipidagi), kontur chiziqlarining bosib, qalin chizilgan mavjudligi yoki yo'qligiga qarab tahlil qilinadi. U atrofdagilardan himoyalani belgisi hisoblanadi. Agar bo'rtib chiqishlar o'tkir burchaklar bilan bajarilsa-tajavuzkor himoya; agar kontur chizig'i «bo'yab», qora qilib chizilsa-qo'rqinch va tashvishlanish; agar qalqon qo'yilsa va chiziqlar ikkitadan bo'lsa-(xavotirlanish) cho'chish va shubhalanish sifatida tahlil qilinadi. Fazoviy joylashuviga qarab bunday himoyaning yo'nalishi aniqlanadi: figuraning yuqori konturi-o'ziga nisbatan yoshi kattalar, ota-onalar, o'qituvchilar, boshliqlar, rahbarlar, ya'ni ta'qiq, zo'rliklarni amalga oshiruvchi shaxslarga nisbatan; pastki kontur-o'zidan yosh jihatdan kichkinalar, qo'l ostidagilarning masharalashi, qabul qilmaslik, ular o'rtasida obro'sining yo'qligi; yon tarafdagi konturlar-aniq bo'lmagan xavotir, har qanday vaziyatda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan turli xavfga nisbatan o'zini himoya qilishga tayyorlik deb baholanadi. Agar «himoya» elementlari kontur ichida joylashsa, ya'ni chizilgan hayvon korpusida bo'lsa va ular o'ng tarfaga yaqin tursa, bu real faoliyat jarayonidagi hamda chap tarfda bo'lsa-ko'proq o'z fikr, e'tiqod didiga nisbatan himoya sifatida talqin qilinadi.

Umumiy energiya. Umumiy energiyani baholash o'ylab topilgan hayvon haqida tasavvur hosil qilish uchun ishlatilgan detallar, tana, bosh, dum, qanot miqdoriga qarab amalga oshiriladi. Tarkibiy qismlar va elementlar (eng zarurlaridan tashqari) qanchalik ko'p bo'lsa, energiya shunchalik ko'p hisoblanadi. Lekin buning aksi bo'lsa, bu energiyani tejash, organizmning astenikligini, o'tkir somatik kasalliklardan dalolat beradi. Bu belgilarni chiziq xarakteri-zaif-to'rsimon chiziqlar, qalamni bosmasdan, qog'oz ustida shunchaki orqali tasdiqlashi mumkin.

Chiziqlar qalin va bosib chizilgan bo'lsa, bu energiya tarzida emas, balki xavotirlanish sifatida bahorlanadi. Bunda ayniqsa, qattiq bosib chizilgan? Hattoki varaqning orqa tarafidan ko'rinib turgan chiziqlarga e'tibor qaratilishi lozim. Bu, ya'ni rasm chizayotgan qo'l muskullarining yuqori tonusi-kuchli xavotirlanishdan darak beradi. Shu bilan birga rasmdagi qaysi detal, qaysi timsol shunday aks ettirilganligiga diqqat qilish zarur, chunki ular yordamida xavotirlanish nima bilan bog'langanligini aniqlash mumkin.

Mazmuni va mavzusi jihatidan hayvonlar xavf soluvchi, neytral turlarga ajratilishi mumkin (masalan arslon, begemot, bo'ri yoki qushlar, chumoli va olmaxon, it, mushuk kabilar) bu holda chizilgan hayvonlar rasmi-rasm chizayotgan shaxs namoyondasi; o'zini rasmdagi hayvon bilan identifikatsiyalash; o'z shaxsi va «men»ga munosabat o'zining mavqei haqidagi tasavvurlar sifatida baholanadi.

Insonga o‘xshatib chizilgan ikki oyoq, odamlarga o‘xshatib kiyintirish-hayvon yuzi odamnikiga o‘xshash qilib, oyoq yoki panja qo‘l sifatida tasvirlansa-bu infantillik, emotsional jihatdan etuk emaslikdan dalolatdir.

Agressivlik darajasi-rasmdagi burchaklar xarakteri, miqdori va joylashuvi orqali ifodalanadi. Bunda burchaklarning tasviridagi boshqa detallar bilan aloqasi ahamiyatli emas. Ayniqsa-tirnoq, tish, tumshuq kabi agressiya timsollariga e‘tibor qaratish zarur. Shuningdek seksual belgilar, ayniqsa, insonga o‘xshatish figuradagi ko‘krak, elin va shunga o‘xshash elementlarga e‘tibor berish lozimki, ular insonning jinsga nisbatan munosabatini bildiradi. Aylana figurasi (ayniqsa ichi bo‘sh) ichki dunyoning sirliligi, yopiqligi, odamovilik, atrofdagilarga o‘zi haqida ma‘lumot berishni istamaslikni ifodalaydi. Bunaqa rasm odatda tahlil qilish uchun etarli ma‘lumot bera olmaydi. Shu bilan birga «hayvon» tanasiga mexanik qismlar o‘rnatilishiga ham e‘tibor berish talab qilinadi. Masalan, hayvon oyoqlari o‘rniga traktor yoki tank zanjirini chizish 3 ta oyoq; bosh qismiga vint, ko‘z o‘rniga elektr lampochkasi, tanaga turli klavish, antennalar o‘rnatish ko‘proq shizofreniya bilan kasallanganlarda kuzatiladi.

Insonning ijodiy imkoniyatlari odatda figuradagi elementlarning o‘ziga xosligi, uning murakkab tuzilishga egaligi bilan belgilanadi. «Tayyor», mavjud hayvonlarning elementlaridan tashkil topgan rasm, masalan, qanotli mushuk, patli baliq, panjali it-ijodiylikning mavjud emasligi sifatida talqin qilinadi. Figurani qurishda tayyor qismlardan emas, balki turli elementlardan foydalanish originallik ifodasidir.

Biz maktablarda tajriba sinov ishlarini olib borganimizda o‘smir yoshdagi o‘quvchilarda ko‘proq agressiv holatdagi hayvonlarni ko‘rishimiz mumkin. Bundan tashqari qizlar va o‘g‘il bolalar chizgan rasmlar o‘rtasidagi ham farqlarini ko‘ramiz. Masalan, qizlar ko‘roq kiprik va sochlarga urg‘u bergan bo‘lsa, o‘g‘il bolalar rasmini ko‘proq tishlar, tirnoqlar yaqqol namoyon bo‘ladi. Bunga sabab bugungi kundagi turli xil gajetlar, kompyuterlar bo‘lsa, yana bir tarafdin oilagi muhit va shaxslararo munosabat ham bo‘lishi mumkin.

Xulosa. Yuqoridagi tahlilda keltirilgan fikrlar va jumalardan umumiy xulosaga kelishimiz mumkinki, shaxsda agressivlik, xavotirlanish, qo‘rquv va shu o‘rinda kreativlik va qobiliyatlar mavjuddir. Uni ular tan olishdan qo‘rqishadi. Sababi inson o‘zida kechayotgan turli tuman hislarini chiqarib berishi murakkab holatdir. Biz esa bunday vaziyatlarda proyektiv metodikalardan foydalansak taqsiinga loyiqdir. Haqiqatda bu metodika bizning tadqiqotimiz uchun judayam katta va qimmatli ma‘lumotlarni bera oldi. Eng muhimi shaxsni haqiqiy ong holatini ochib berdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Norbosheva M.O. Bolalar psixologiyasi va psixodiagnostikasi, o‘quv qo‘llanma// T.2020 yil ADAST-POLIGRAF nashriyoti.
2. G.I.Niyazmetova. Shaxs psixodiagnostikasining proyektiv metodlari, psixologlar uchun qo‘llanma.T.2013yil NOSHIR nashriyoti.88bet.
3. S.T.Otaxonova. Proyektiv testlar yordamida o‘quvchilarning psixik xususiyatlarini o‘rganish, metodik tavsiya.Andijon.2015yil.

4. Axmedov.M. Shaxs psixodiagnostikasi.T.2012y
5. Rasulov.A.I. Psixodiagnostika.T.2010y
6. G‘oziyev. Y.G‘. Tashimov.R.Y. O‘zingizni bilasizmi T.1994y
7. M. A. Тилакова, & O. Э. Эшмурадов (2021). Креатив кобилиятларни ривожлантириш механизмлари. *Scientific progress*, 1 (6), 143-149.
8. Kamolov D. ETHICS OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE: EXPLORING THE MORAL AND SOCIAL IMPLICATIONS OF AI IN CONTEMPORARY SOCIETY //SGS-Engineering & Sciences. – 2023. – Т. 2. – №. 02.
9. Kamolov D. R. O. G. L. O'zbekistonda demokratiya va axloqning zamonaviy muammolari va yechimlari //Academic research in educational sciences. – 2022. – Т. 3. – №. NUU Conference 2. – С. 348-352.
1. Kamolov D. GLOBALIZATION PHENOMENON AND GLOBALISM //Journal of Contemporary World Studies. – 2023. – Т. 1. – №. 1. – С. 4-9. Kamolov D. Athenian democracy: individual and collective freedom //Semantic Scholar. – 2021.
2. Kamolov D. Davlat boshqaruviga oid axloqiy qarashlar //Адабиёт учкунлари. – 2021.
10. Kamolov D. ON THE WAY TO THE DIGITAL EDUCATION SYSTEM OF UZBEKISTAN. – 2023.
11. Dostonbek K. SPIRITUAL AND MORAL ENVIRONMENT OF SOCIETY //Social science and innovation. – 2023. – Т. 1. – №. 2. – С. 128-133.
12. Цой М., Иброхимов Ш. СОВРЕМЕННАЯ СИСТЕМА ОБРАЗОВАНИЯ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВИЗАЦИИ В УЗБЕКИСТАНЕ //International Journal of scientific and Applied Research. – 2024. – Т. 1. – №. 3. – С. 24-28.
13. Цой М. П., Худояров Р. Т. Рашидов АР ПРОДВИЖЕНИЕ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ В УЗБЕКИСТАНЕ //Компьютер ilmlari va muhandislik texnologiyalari. Xalqaro miqyosidagi ilmiy-texnik anjuman materiallari to‘plami– Jizzax: O‘zMU Jizzax filiali. – 2022.
14. Цой М., Камолов Д. ЗНАЧЕНИЕ И РОЛЬ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ СУБЪЕКТОВ МАЛОГО ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА В ЭКОНОМИКЕ: МИРОВОЙ ОПЫТ И ПРАКТИКА УЗБЕКИСТАНА //Academic literature. – 2025. – Т. 1. – №. 1. – С. 1-105.
15. Цой М. П., Ибрагимов З. Т. ЗАКОНОДАТЕЛЬНЫЕ ОСНОВЫ ЦИФРОВОГО ОБРАЗОВАНИЯ //International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research. – 2022. – Т. 1. – №. 2. – С. 339-342.
16. Saitov S., Nuraliyeva S. BOZOR IQTISODIYOTIDA PSIXOLOGIK BOSHQARUV SHAKLLARI //Scientific practical conference. – 2025. – Т. 1. – №. 1. – С. 447-452.
17. Mukhtarov B. A. et al. Manifestation of Corruption in Society //Zien Journal of Social Sciences and Humanities. – 2022. – Т. 14. – С. 156-166.
18. Farxodovich S. S. INSON KAPITALINING RAQAMLI RIVOJLANISHINI VAHOLASH //Raqamli iqtisodiyot (Цифровая экономика). – 2024. – №. 6. – С. 36-45.